

**O‘zbekiston Respublikasi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi  
tarmog‘ining qo‘shilgan qiymati tarkibini statistik o‘rganish**

**Mamatkulov Baxtiyor Xalmuradovich-**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Iqtisodiy statistika” kafedrası professori,

iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

**Статистическое исследование структуры добавленной стоимости  
отрасли сельского, лесного и рыбного хозяйства Республики**

**Узбекистана**

Маматкулов Бахтиёр Халмурадович –

профессор кафедры "Экономическая статистика",

доктор экономических наук (DSc),

Ташкентского государственного экономического университета

**Statistical study of the composition of the added value of the  
agricultural, forestry and fishery sectors of the Republic of Uzbekistan**

Mamatkulov Bahtiyor Khalmuradovich –

Professor of the Department of "Economic Statistics",

doctor of economic sciences (DSc)

Tashkent State University of Economics,

***Annotatsiya.** Maqolada O‘zbekiston Respublikasi hududlari kesimida statistik ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash orqali qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘ining qo‘shilgan qiymatini statistik o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.*

***Tayanch so‘zlar:** qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, tarmoq, statistik o‘rganish, qo‘shilgan qiymat, dinamika.*

Annotation. The article describes the unique characteristics of statistically studying the added value of the agricultural, forestry, and fishing sectors through the collection and processing of statistical data across the regions of the Republic of Uzbekistan.

Key words: agriculture, forestry, and fishing, sector, statistical study, added value, dynamics.

Аннотация. В статье освещаются особенности статистического изучения добавленной стоимости сельского, лесного и рыбного хозяйства через сбор и обработку статистических данных по регионам Республики Узбекистан.

Ключевые слова: сельское, лесное и рыбное хозяйство, отрасль, статистическое исследование, добавленная стоимость, динамика.

## **Kirish**

Keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'itish isloh qilish, sohada bozor munosabatlarini joriy qilish, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston Respublikasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining qo'shilgan qiymati tarkibida bir qator o'zgarishlar bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida" gi PF-158-sonli Farmonida – Qishloq xo'jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish bo'yicha Jumladan, Bir gektardan olinadigan o'rtacha daromadni 5 ming dollarga yetkazish, qishloq xo'jaligi sohasida eksport hajmini yiliga 10 milliard dollarga yetkazish, agrar sohaga jami 15 milliard dollar investitsiyalarni jalb qilish, hosildorlik ko'rsatkichlarini paxta bo'yicha o'rtacha 45-50 sentnerga, g'alla bo'yicha 80-85 sentnerga yetkazish"<sup>1</sup> kabi bir qator ustuvor vazifalar belgilandi.

Shu sababli, "Rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini ishlab chiqishda xalqaro darajada tavsiya etiladigan tushunchalarga, tasniflarga va uslubiyatga amal qiladi"<sup>2</sup>

## **Metodolgiya**

Statistik kuzatish, guruhlash usullari, mutloq, nisbiy va o'rtacha miqdorlar, grafik usullari qo'llanilgan.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida" gi PF-158-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida" gi O'RQ - 707 – sonli qonuni. 2021 yil. 11 avgust. . [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

## **Natijalar**

Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi – sohada oʻz isteʼmoli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xoʻjaligida, oʻrmonchilik va yogʻoch tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi. “2024 yilda qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 467041,5 mlrd soʻmni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar – 451019,6 mlrd soʻmni, oʻrmon xoʻjaligi – 11778,4 mlrd soʻmni, baliqchilik xoʻjaligi – 4243,5 mlrd soʻmni tashkil qildi”<sup>3</sup>.

## **Tahlil**

Mamlakatimizda agrar va oziq-ovqat tarmogʻini rivojlantirish yakunlarini sarhisob qilishga qaratilgan mazkur hisobotda 2023-yilda sohada amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, 2030-yilgacha qishloq xoʻjaligi sohasini rivojlantirish strategiyasi hamda Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsad va ustuvor yoʻnalishlarning maqsadli koʻrsatkichlariga erishish natijalari atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek, hisobotda qishloq xoʻjaligining holati va istiqbollarini qisqa va yaqqol tarzda tavsiflovchi muhim axborot-tahliliy maʼlumotlar Qishloq xoʻjaligi vazirligi uchun keyingi qadamlarni belgilashda foydali boʻlishi nazarda tutiladi.

2024 yilda qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida faoliyat koʻrsatayotgan korxona va tashkilotlar (fermer va dehqon xoʻjaliklaridan tashqari) soni – 30952 birlikni, shundan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlarda – 28109 birlikni, oʻrmon xoʻjaligida – 228 birlikni hamda baliqchilik xoʻjaligida – 2615 birlikni tashkil etdi. 2024 yilda qishloq, oʻrmon va

---

<sup>3</sup> www.stat.uz. - Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasining maʼlumotlari.

baliqchilik xo‘jaligida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) soni – 9117 birlikni tashkil etdi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo‘jaliklarida, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi. Ovchilik xo‘jaligi — ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish, bu sohalarda xizmat ko‘rsatish, shuningdek, parvarishxona va fermalarda hayvonlarni saqlash, ko‘paytirish va davolash xarajatlari hisobga olinadi. O‘rmon xo‘jaligi – faoliyat turi o‘rmon resurslarini takror ishlab chiqarish va o‘rmon resurslaridan foydalanish, xususan, o‘rmonchilik, o‘rmonzorlarni barpo etish va yog‘ochni qayta ishlash tarmoqlari uchun binokorlik dumaloq yog‘ochlarini yetishtirish, shuningdek, yovvoyi holda o‘sovchi o‘rmon mahsulotlarini yig‘ish bilan bog‘liq bo‘lgan soha. Baliqchilik xo‘jaligi – baliq ovlash va suv bioresurslarini, akva kulturani saqlash, suv bioresurslaridan olinadigan baliq va boshqa mahsulotlarni yetishtirish va sotish bo‘yicha faoliyat turi hisoblanadi.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2024 yilda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 467041,5 mlrd so‘mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 451019,6 mlrd so‘mni, o‘rmon xo‘jaligi – 11778,4 mlrd so‘mni, baliqchilik xo‘jaligi – 4243,5 mlrd so‘mni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasining 2020 - 2024 yillar bo‘yicha makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini o‘zgarishi dinamikasini tahlil qilganimizda, jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, qishloq, o‘rmon va baliq tarmog‘ining qo‘shilgan qiymati 2024 yilda 2023 yilga nisbatan 33201,5 mlrd.so‘mga, ya’ni 3,1 foizga oshganligini ko‘rishimiz mumkin. (1-jadval)

**O‘zbekiston Respublikasining 2020-2024 yillar bo‘yicha makroiqtisodiy  
ko‘rsatkichlarini o‘zgarishi dinamikasi<sup>4</sup> (2023 yilgi doimiy narxlarda)**

| Ko‘rsatkichlar                           | O‘lchov birligi          | Yillar   |          |          |          |          |
|------------------------------------------|--------------------------|----------|----------|----------|----------|----------|
|                                          |                          | 2020     | 2021     | 2022     | 2023     | 2024     |
| Yalpi ichki mahsulot                     | mlrd.so‘m                | 603956,2 | 721712,7 | 869779,8 | 1058383  | 1283346  |
|                                          | fizik hajm indeksi, % da | 101,6    | 108      | 106      | 106,3    | 106,5    |
|                                          | deflyator indeksi, % da  | 111,6    | 113,6    | 113,8    | 112,2    | 113,1    |
| Qishloq, o‘rmon va baliq tarmog‘ining QQ | mlrd.so‘m                | 133592   | 156445   | 188345,8 | 217279,8 | 250481,3 |
|                                          | fizik hajm indeksi, % da | 102,9    | 104      | 103,6    | 104,1    | 103,1    |

**Manba:** O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Yurtimizda so‘nggi yillarda sohani barqarorligini ta‘minlash bo‘yicha qabul qilingan ko‘plab chora tadbirlar, tarkibiy islohotlar o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda. O‘tgan yil davomida, jiddiy muammolarga qaramay, bizning oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tizimlarimiz mustahkam va barqaror bo‘lib qolmoqda. Bu esa shakllangan sektor tajribasi hamda ta‘minot zanjiri tuzilmalarining ishonchliligidan dalolat beradi. Pirovardida, iste‘molchilarimiz uchun keng turdagi yuqori sifatli, arzon qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlaridan muntazam foydalanish imkoniyati yaratilmoqda.

Quyida O‘zbekiston Respublikasida 2010-2024 yillar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliq tarmog‘ining qo‘shilgan qiymati dinamikasining o‘zgarishini tahliliy ko‘rsatkichlarini keltiramiz.

O‘zbekiston Respublikasida 2010-2024 yillar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliq tarmog‘ining qo‘shilgan qiymati 2024 yilda 365894,6 mlrd. so‘mni, 2010 yilda 216131,3 mlrd.so‘m (taqqoslama bahoda) ni tashkil etgan yoki 2024 yilda 2010 yilga nisbatan 149763,30 mlrd.so‘mga yoki 69,3 foizga oshgan. (3-jadval)

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



**O'zbekiston Respublikasida 2015-2024 yillar bo'yicha qishloq, o'rmon  
va baliq tarmog'ining qo'shilgan qiymatini analitik tekislash va prognoz  
darajasi**

| Yillar      | Qishloq, o'rmon<br>va baliq<br>tarmog'ining<br>yalpi qo'shilgan<br>qiymati,<br>mlrd.so'm. so'm,<br>(taqqoslama<br>baholarda),<br>mlrd. so'm, (Y) | Shartli<br>yillar,<br>t | t <sup>2</sup> | Y <sub>t</sub> | Y <sub>t</sub>   | Yillar | Shartli<br>yillar,<br>t | Qishloq,<br>o'rmon va<br>baliq<br>tarmog'ining<br>prognoz<br>darajasi,<br>mlrd. so'm, |
|-------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------|----------------|----------------|------------------|--------|-------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|
| 2010        | 17878,4                                                                                                                                          | -7                      | 49             | -125148,8      | -10397,6         | 2025   | 8                       | 228007,3                                                                              |
| 2011        | 22543,1                                                                                                                                          | -6                      | 36             | -135258,6      | 5496,0           | 2026   | 9                       | 243901,0                                                                              |
| 2012        | 32793,4                                                                                                                                          | -5                      | 25             | -163967        | 21389,7          | 2027   | 10                      | 259794,6                                                                              |
| 2013        | 39334,3                                                                                                                                          | -4                      | 16             | -157337,2      | 37283,4          |        |                         |                                                                                       |
| 2014        | 45188                                                                                                                                            | -3                      | 9              | -135564        | 53177,0          |        |                         |                                                                                       |
| 2015        | 56884,8                                                                                                                                          | -2                      | 4              | -113769,6      | 69070,7          |        |                         |                                                                                       |
| 2016        | 68669,9                                                                                                                                          | -1                      | 1              | -68669,9       | 84964,4          |        |                         |                                                                                       |
| 2017        | 75640,2                                                                                                                                          | 0                       | 0              | 0              | 100858,0         |        |                         |                                                                                       |
| 2018        | 90981,2                                                                                                                                          | 1                       | 1              | 90981,2        | 116751,7         |        |                         |                                                                                       |
| 2019        | 116813                                                                                                                                           | 2                       | 4              | 233626         | 132645,3         |        |                         |                                                                                       |
| 2020        | 133592                                                                                                                                           | 3                       | 9              | 400776         | 148539,0         |        |                         |                                                                                       |
| 2021        | 156445                                                                                                                                           | 4                       | 16             | 625780         | 164432,7         |        |                         |                                                                                       |
| 2022        | 188345,8                                                                                                                                         | 5                       | 25             | 941729         | 180326,3         |        |                         |                                                                                       |
| 2023        | 217279,8                                                                                                                                         | 6                       | 36             | 1303678,8      | 196220,0         |        |                         |                                                                                       |
| 2024        | 250481,3                                                                                                                                         | 7                       | 49             | 1753369,1      | 212113,6         |        |                         |                                                                                       |
| <b>Jami</b> | <b>1512870,2</b>                                                                                                                                 | <b>0</b>                | <b>280</b>     | <b>4450225</b> | <b>1512870,2</b> |        |                         |                                                                                       |

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2010-2024 yillar bo'yicha ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Olingan ma'lumotlar asosan:

“Qator darajalari o'rtasidagi mutloq farqlar (mutloq o'sishlar) deyarlik o'zgarmas miqdor (konstanta) bo'lsa yoki bir biridan juda kam tafovutlansa, ya'ni darajalar arifmetik progressiya yoki unga yaqin shaklda o'zgarsa, ularni vaqtini to'g'ri chiziqli funksiyasi deb qarash mumkin.

$$Y_t = a_0 + a_1 t$$

$$\text{Bundan: } a_0 = \frac{\sum Y}{N} = \bar{Y} \quad \text{va} \quad a_1 = \frac{\sum Yt}{\sum t^2} \text{”}^5$$

<sup>5</sup> N.M.Soatov, X.Nabiyeu, D.Nabiyeu, G.N.Tillaxo'jayeva. Statistika. – T.: TDIU, 2009.

O'zbekiston Respublikasi sanoat tarmog'ining qo'shilgan qiymati uchun:

Bunda:

$$a_0 = \frac{\sum Y}{n} = \frac{1512870}{15} = 100858,0133 \text{ mlrd.so'm.}$$

$$a_1 = \frac{\sum Yt}{\sum t^2} = 15893,6607 \text{ mlrd.so'm.}$$

Umuman olganda, qishloq, o'rmon va baliq tarmog'ining qo'shilgan qiymati yillik qo'shimcha o'sishi sur'ati bu yillarda o'rtacha 5-6 foizdan iborat bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq, o'rmon va baliq tarmog'ining qo'shilgan qiymati bo'yicha 2010-2024 yillardagi statistik tadqiqotlar natijalariga ko'ra 2026 yilda O'zbekiston Respublikasi qishloq, o'rmon va baliq tarmog'ining qo'shilgan qiymati 259794,6 mlrd.so'mni tashkil etadi. (2-jadval)

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida mamlakatimizda chuqur tarkibiy siljishlar va iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan davrda qishloq, o'rmon va baliq tarmog'ida mahsulot yetishtirishni yanada jadalroq rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Xulosa va takliflar**

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasining qishloq, o'rmon va baliq tarmog'ining qo'shilgan qiymati tarkibi dinamikasining statistik tahliliga aks ta'sir ko'rsatuvchi omillar ham mavjud bo'lib, ularning ta'sirini kamaytirish yoki bartaraf etish sanoat taraqqiyotini sur'atlarini oshiradi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin;

✓ yer uchastkalarini to'g'ridan-to'g'ri ajratishni nazarda tutuvchi tartiblar, imtiyoz va istisnolarni qonunchilikdan to'liq chiqarib tashlash;

✓ qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish va ijaraga berishdan tushadigan mablag'larni taqsimlashning yagona tartibini belgilash;

✓ jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish bo'yicha respublika va hududiy maqsadli jamg'armalar faoliyatini tartibga soluvchi qonunosti hujjatlarini takomillashtirish;

✓ yer to'g'risidagi qonunosti hujjatlaridagi o'zaro nomuvofiqliklarni bartaraf etish.

O'zbekiston Respublikasining qishloq, o'rmon va baliq tarmog'ining qo'shilgan qiymati tarkibining muhim iqtisodiy yo'nalishlaridan biri davlat tomonidan kichik sanoat shaharchalari, tashkiliy qishloq, o'rmon va baliq tarmog'i hududlarining shakllanishi va rivojlanishini rag'batlantirishdan iborat.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida" gi PF-158-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>
2. O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida" gi O'RQ - 707 – sonli qonuni. 2021 yil. 11 avgust. . [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
3. N.M.Soatov, X.Nabiyev, D.Nabiyev, G.N.Tillaxo'jayeva. Statistika. – T.: TDIU, 2009.
4. Mamatkulov B.X., Utanov B.K. Qishloq xo'jaligi statistikasi. Darslik. – T.: Adabiyot jamg'armasi, 2004.
5. [www.stat.uz](http://www.stat.uz). - O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.